

SO'ROQ GAPLAR ENTNOLINGVISTIK BIRLIK ELEMENTI SIFATIDA

Zahro Mamadaliyeva

Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15185652>

Annotatsiya. Horizgi kunda so'roq gaplar tilshunoslikda muhim kommunikativ vosita sifatida xizmat qilib, nutq jarayonida axborot olish, suhbatdoshning munosabatini aniqlash, muloqotni samarali tashkil etish kabi vazifalarni bajaradi. Entnolingvistik nuqtayi nazardan, so'roq gaplar xalqning dunyoqarashi, milliy mentaliteti va til madaniyatini ifodalovchi muhim birlik hisoblanadi. Ular orqali insonning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va ijtimoiy muhitga bo'lgan munosabati aks etadi. So'roq gaplar yordamida milliy an'ana, urf-odatlar va qadriyatlar nutqiy jarayonda namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada so'roq gaplarning entnolingvistik birlik sifatidagi o'rni, ularning til va madaniyat bog'liqligini ifodalashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. So'roq gaplar orqali shaxs yoki predmetning xususiyatlari, harakati yoki holati baholanib, xalqning ma'naviy olami va madaniy qadriyatlari ifodalanadi. Natijada, so'roq gaplarning milliy tafakkurni ifodalashdagi roli yoritiladi.

Kirish so'zlar: So'roq gap, Entnolingvistika, Lingvomadaniyat, Kommunikativ vosita, Til.

INTERROGATIVE STATEMENTS AS A MEANS OF EXPRESSING VERBAL ADJECTIVES

Abstract. Interrogative sentences serve as an important communicative tool in linguistics, performing functions such as obtaining information in the speech process, determining the interlocutor's attitude, and effectively organizing communication. From an ethnolinguistic point of view, interrogative sentences are an important unit that expresses the worldview, national mentality, and linguistic culture of the people. Through them, a person's inner experiences, feelings, and attitude to the social environment are reflected. With the help of interrogative sentences, national traditions, customs, and values are manifested in the speech process. This article analyzes the role of interrogative sentences as an ethnolinguistic unit and their importance in expressing the connection between language and culture. Through interrogative sentences, the characteristics, actions, or state of a person or object are evaluated, and the spiritual world and cultural values of the people are expressed. As a result, the role of interrogative sentences in expressing national thinking is highlighted.

Keywords: Interrogative sentence, Enthnolinguistics, Linguistic culture, Communicative medium, Language.

ВОПРОСИТЕЛЬНЫЕ ПРЕДЛОЖЕНИЯ КАК СРЕДСТВО ВЫРАЖЕНИЯ
СВОЙСТВ ГЛАГОЛОВ

Аннотация. *Вопросительные предложения служат важным коммуникативным инструментом в лингвистике, выполняя такие задачи, как получение информации, определение отношения собеседника, а также эффективная организация общения в ходе речевого процесса. С этнолингвистической точки зрения вопросительные предложения являются важной единицей, отражающей мировоззрение, национальный менталитет и языковую культуру народа. Через них отражаются внутренние переживания, чувства и отношение человека к социальной среде. С помощью вопросительных предложений в речевом процессе проявляются национальные традиции, обычаи и ценности. В данной статье анализируется роль вопросительного предложения как этнолингвистической единицы, их значение в выражении языка и культуры. Через вопросительные предложения оцениваются характеристики, действие или состояние человека или предмета, выражаются духовный мир и культурные ценности народа. В результате выделяется роль вопросительных предложений в выражении национального мышления.*

Ключевые слова: *Вопросительное предложение, Этнолингвистика, Лингвистическая культура, Коммуникативный инструмент, Язык.*

Kirish

Til insonlarning fikr va hissiyotlarini ifodalash, axborot almashish va muloqot o'rnatish uchun eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir xalqning tili uning madaniyati, dunyoqarashi, urf-odatlarini, shuningdek, tarixiy, ijtimoiy va falsafiy qadriyatlarini aks ettiradi. Til orqali odamlar o'z tajribalari, sezgilarini, fikrlarini boshqa kishilar bilan baham ko'rishadi va shu orqali bir-birlarini tushunishga, uyg'un muloqotga erishishadi. Shu ma'noda, so'roq gaplar tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular orqali nafaqat axborot olish, balki insonning ichki olami, hissiyotlari, niyatlari va dunyoqarashi ham ifodalanadi. -So'roq gaplar, aniqroq aytganda, so'roqlarning entnolingvistik birlik sifatida o'rni, tilda o'zgacha bir yondashuvni talab qiladi.

Entnolingvistika — til va madaniyatning o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi ilmiy soha bo'lib, unda til yordamida jamiyatning milliy va etnik xususiyatlari, urf-odatlarini, qadriyatlarini va dunyoqarashlari aks ettiriladi. So'roq gaplar bu jarayonda milliy tafakkur va til madaniyatining ajralmas qismi sifatida xalqning o'ziga xosligini va ijtimoiy hayotini tasvirlaydi. Masalan, bir xalqning savol berish uslubi boshqa xalqlardan farq qilishi mumkin, bu esa uning tilidagi strukturalar va kommunikativ maqsadlarning qanday shakllanishiga ta'sir qiladi.

So'roq gaplarning tilda o'rni, shuningdek, ular orqali ifodalangan ma'lumot va hissiyotlar milliy tilshunoslikning markaziy jihatlariidan biridir. Ular nafaqat ma'lumot olish uchun, balki shaxslar o'rtasida muloqotni tashkil etishda, bir-birining fikrini aniqlashda, his-tuyg'ularni izhor qilishda va hatto jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni o'rnatishda muhim vosita bo'lib xizmat

qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan, so'roq gaplar entnolingvistik birlik sifatida tilshunoslikda o'ziga xos rol o'ynaydi. Bu maqolada so'roq gaplarning entnolingvistik birlik sifatidagi ahamiyati, ularning milliy tafakkur va madaniyatni aks ettirishdagi roli, shuningdek, so'roq gaplar yordamida tilning etnik va milliy xususiyatlari qanday namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. So'roq gaplar faqat nutqiy vosita sifatida emas, balki tilning ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi asbob sifatida o'rganiladi. Bu yondashuv tilshunoslikda so'roq gaplarning kommunikativ funksiyalarini kengroq tushunish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili va metod

So'roq gaplar muloqotning hamda uning vositasi bo'lgan tilning eng qadimiy davrlaridan boshlab mavjud bo'lgan lingvomadaniy birlik sifatida o'zida juda katta etnomadaniy xususiyatlarni jamlaydi.

Salomlashish, suhbatlashish, xayrlashishdan boshlab turli urf-odatlar va marosimlarda so'roq gaplardan foydalaniladi. Bu har bir xalqqa tegishli turli entnolingvistik odatlarni farqlashda muhim asos bo'ladi. Masalan, o'zbeklarda salomlashilgandan so'ng *Uydagilar yaxshimi? Bola-chaqalar eson-omonmi?* deb so'raladi. Bunda yosh, jins hamda boshqa ijtimoiy jihatlar hisobga olinadi.

Bundan tashqari urf-odat, marosim va jarayonlarning o'ziga xos etnik xususiyatlari mavjud. Masalan, farzand tug'ilganda uning jinsi haqida bilish uchun to'g'ridan to'g'ri *o'g'ilmi qizmi* deb so'ralmaydi; uning mazmuni Oshmi, shavlami? Bo'rimi, tulkimi? yoki Qandmi, holvami? ba'zi shevalarda Mehmonmi, mezbonmi tarzidagi savollar orqali ifodalanadi.

Beshik yasatilib kelgan kechada yoshi ulug' ayollar to'planib, beshik tuzashadi va ulardan eng ulug'i chaqaloqni qo'lga olib *"mana bunday yotqizaymi?"* deb atayin beshikka noto'g'ri holatni ko'rsatadi, boshqa ayollar baravariga *"yo'q"* deyishadi, u ayol yana boshqa holatda *"bunday yotqizaymi?"* deb so'raydi, ayollar yana *"yo'q, yo'q"* deyishadi. Uch-to'rt marta takrorlangandan so'ng beshikka to'g'ri holatda *"mana bundaymi?"* deb so'raydi, shundagina *"haa"* deyishadi va chaqaloqni beshikka solib belashadi. Bu odat qadimda yovuz ruhlarni chalg'itish va bolaning hayotda o'rnini to'g'ri topishiga ishora bo'lgan.

So'roqlar lingvomadaniy mazmun anglashilishida katta o'rin tutadi. Masalan, o'zbeklarda biror xursandchilik xabar yoki yangilik bo'lganda, undan xabar topganlik va xursandchilikka sheriklik mazmunida *Bu yog'i oshmi endi? / Qachon osh qilib berasiz? / Oshga qachon eriysiz? / Qachon yuvamiz?* (erkaklarda) tarzida tabrik jumlasini aytiladi. Bu jumlagina *Bitta osh sizdan aylansin / Siz borgan kuni uyda osh / Aytganingizda tizza bo'yi osh* deb javob beriladi.

So'roqlar xursandchilik kunlar bilan bir qatorda xafachilik, azadorlik va motam marosimlarida ham faol qo'llaniladi. Ta'ziya bo'lgan xonadon egalaridan *"xafa bo'lmay o'tiribsizlarmi?"*, *"charchamay kuzatib oldilaringizmi?"* deb hol so'raladi.

Agar kichik yoshli go'dak olamdan o'tgan bo'lsa, uning onasidan "qo'lingiz bo'shab qoldimi?", "ovunchog'ingizni yo'qotib qo'ydim xafa bo'lmadingizmi?" deb hol so'raladi. Janoza payti va dafn marosimida "bu odam qanaqa edi?" deb so'raladi. Mayit chiqqan xonadon egalari uning yaqin tanishlaridan "otam yoki onam yaxshimidi, yomonmidi?" deb so'raydilar. Shunda tanishlari u odam haqida eslashib, uning hurmati uchun "otangiz yoki onangiz juda yaxshi odam edi" deb sifatlaridan eslashadi.

Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida ham Alp Er To'nga marsiyasi keltirilgan. Marsiyada

Alp Er To'nga o'ldimi

Yuksak tog'lar past bo'ldimi

Endi yurak yirtilur

kabi misralar aytilgan.

Hozirgi kunda ham motam bilan bog'liq marosimlarda ayollar baland tog'lar past bo'ldimi?, o'lganingiz rost bo'ldimi? yoki qaro yerlar qattiqmikan?, yonboshingiz botdimikan? tarzida so'roq mazmunli jumlar ishlatiladi.

So'roq gaplar nikoh bilan bog'liq marosimlarda ham muhim etnomadaniy ifoda hosil qiladi. Sovchilikka borib kelgan kishilardan qiz tomon to'yga rozi bo'lganmi yo'qliginimi "bo'ri bo'ldingizmi yoki tulkimi?" deb so'rashadi. Kelin-kuyovni birinchi nikoh kechasida katta yoshli onaxonlar ko'zgu ko'rsatib "kunmi, oymi?" deb so'rashadi. Shunda kuyov kun deb aytsa kelin oy deb aytadi.

Nikoh o'qish jarayonida ham so'roq gaplar alohida o'rin tutadi. Unda yigitdan kelinning ismini otasmi bilan qo'shib aytib, (uni) *tan mahramlikka qabul qildingizmi?* deb bir marta so'raladi. Qizdan esa yigitning ismini otasiga qo'shib (uni) *tan mahramlikka qabul qildingizmi?* deb uch marta yoki undan ko'p marta toki "ha, qabul qildim" degunigacha sabr bilan so'raladi. Masalan,

SUVON. Xo'sh, Qo'chqorbek Abdusattor o'g'li...

QO'CHQOR (o'rnidan turib). Labbay, taqsir?

SUVON. E, o'tiring! Qo'chqorbek Abdusattor o'g'li, siz Alomat Olimjon qizini o'z inon-ixtiyoringiz ila hasmingizga qabul etasizmi?

QO'CHQOR. Hali tushuntirdim-ku, taqsir...

SUVON. «Ha» deng!

QO'CHQOR. Ha! (Tomoq qirib qo'yib.) Uch marta so'ramaysizmi, taqsir?

SUVON. Nimangizdan uch marta so'rayman, o'lib turibsiz-ku? Mana, kelin bo'lmishdan uch bor so'rasak arziydi. (Alomatga.) Siz, Alomat Olimjon qizi, Qo'chqorbek Abdusattor o'g'liga o'zingizni tan mahramlikka bag'ishladingizmi?

(*Alomat nigohini bir nuqtaga qadaganicha o'tiraveradi.*) Taqdiringizni bu kishiga o'z inon-ixtiyoringiz bilan qo'shmoqqa rozimisiz? Alomat Olimjon qizi, o'zingizni mana shu odamga tan mahramlikka bag'ishladingizmi?

Alomat yana indamaydi.

QO'CHQOR. Uch marta bo'ldi, Alomatxon...

SUVON. Iye, Qo'chqorbek, bu yog'i pishmaganmidi hali?

QO'CHQOR. Hozir, taqsir... esingizdami?

Alomat hamon o'sha ko'yi qimirlamay o'tirardi. Qo'chqor nima qilishni bilmay, uning atrofida aylanadi, sekingina boshqaruv blokini urib ko'radi.

Suvon hayron.

(Sh.Boshbekov, Temir xotin)

Misolda nikoh o'qish marosimi odatlari yumor asosida aks ettirilgan. So'roqlar nikoh marosimining asosiy mazmunini ifoda etadi. Berilgan so'roqqa rozilik javobi nikoh o'qilishiga asos bo'ladi.

O'zbek lingvomadaniyatida ayniqsa, bo'y yetgan qizlarda sevgi, muhabbat masalasida o'ziga xos hayo-ibo, nikohga rozi emasligini aytish me'yor sanaladi. Bunda so'roqlar ba'zan o'zgartirilgan holda ham aytiladi. Masalan, yangi unashilgan qiz yoki yigitga "qalliq muborak bo'lsin" deb emas, balki "do'ppngiz qutlig' bo'lsin" deb tabrik aytiladi. Bu o'zbeklarning o'ziga xos milliy belgisi – lingvokulturemasi sanaladi.

O'zbek lingvomadaniyatida so'roq gaplarning alohida genderologik farqlari bor.

Masalan, erkaklar nutqida *Qittay-qittay otamizmi?*, *Anavindan ketadimi?* kabi jumlar ishlatilsa bu shakllar ayollar nutqida qo'llanilmaydi. Ayollar nutqida *Xo'jayiningiz, bolalaringiz yaxshimi?*, *Yengillab oldingizmi?* kabi savollar uchraydi.

Umuman olganda so'roqlar lingvomadaniy jihatdan muhim element sanaladi. Buning siyosiy, kasbiy, ijtimoiy va iqtisodiy asoslari ham mavjud. Bu jihatlar so'roqlarning vazifaviy tomonini ochib beradi. So'roqlar muloqotda turli vazifalarni bajarish uchun xizmat qiladi. Ular:

1. Ma'lumot olish uchun xizmat qiladigan sof so'roqlar. Ular muloqotda biror axborotga ega bo'lish, biror ma'lumotni olish uchun qo'llaniladi. Masalan, *Ismingiz nima? Qayerda yashaysiz? Nima ish bilan shug'ullanasiz?* kabi savollar yangi ma'lumot olish uchun ishlatiladi va so'roqlarning asosiy vazifaviy turini hosil qiladi.

2. Imtiyoz beruvchi va vaziyatga moslashtiruvchi (adaptatsiya qiluvchi) savollar. Bu savollar odatda yangi ma'lumot olish uchun berilmaydi, balki so'zlovchiga avvaldan ma'lum bo'lgan va tinglovchini to'g'ri javob berishida ko'p qiyinchilik tug'dirmaydigan savollardan iborat bo'ladi. So'roqlarning bu vazifaviy turi maqsadli suhbat va jarayonlarning samarali kechishiga xizmat qiladi va odatda professional uslub uchun xos bo'ladi. Masalan,

– *Ismingiz Shuhrat-a?*

- Ha.
- *Yangi hayot ko'chasida turasiz, shundaymi?*
- *Shunday.*
- *Sizga bir-ikki savolim bor edi.*

bu kabi savollar yangi ma'lumot bermaydi, balki muloqotni boshlab olishga yordam beradi. So'roqlarning bu turidan ichki ishlar xodimlari surishtiruv isharini olib borishda foydalanadilar. Dars mashg'ulotlarida ham bu turning vazifaviy imkoniyatlari qo'l keladi. O'qituvchi o'quvchilardan *Bugun nechanchi sana?, o'tgan darsi mavzusi nima bo'lgan edi?, Uyga qanday vazifa berilgandi?* deb so'rash bilan o'quvchilardagi faollikni oshiradi. Mazkur savollarga osonlik bilan javob beradigan o'quvchida keyingi savollarga ham javob berish ishtiyoqi paydo bo'ladi.

3. Sinash, tekshirib ko'rish uchun xizmat qiladigan savollar. Bu savol turlari o'qitishda, tergov jarayonlarida hamda ma'lumotlarni aniqlash, nomzodlarni tanlash paytida ko'p qo'llaniladi. Psixologik tanlovlarda ham shu turdagi savollar orqali kishilar tabiatiga xos ayrim muhim jihatlar tekshiriladi.

— *Giyohvandlarning surati bormi?*

Hamdam ko'krak cho'ntagidan beshta surat chiqarib, ikkitasini ajratdi:

— *Mana bular. Ko'rsatdim, tanimadi.*

— *Bu yerga qachon kelishgan ekan?*

— *Uch kun oldin.*

Zohid suratni olib, iziga qaytdi.

— *Mana bularga diqqat bilan qarang. Shoshilmang. Birontasi uyingizga kelganmi?*

Ayol sinchiklab qarab, bosh chayqadi.

— *Yaxshilab eslang. Balki birontasi uch kun oldin kelib eringizga uchrashgandir?*

— *Kelsa bilardim. Adasiga uchrashishlari mumkin emas. Uch kun oldin u kishi Yerevanda edilar.*

— *Qachon keldilar?*

— *Kecha ertalab kelib, choy-poy ichib keyin ishga ketdilar.*

— *Bu yerga notanish odamlar kelib turisharmidi, masalan, bir narsa so'rabmi?*

— *Yo'q, odam kam bo'ladi uyimizda. U kishi doim ish bilan bandlar. Bekordan-bekorga gaplashib o'tirishni yoqtirmaydilar.*

— *Musallas so'rab kelishmaydimi?*

— *Qo'ni-qo'shnilar chiqib turishadi.*

Dahlizga oq xalatli ayol kirib, Hamdamga nimadir dedi. Hamdam ichkari kirib Zohidning qulog'iga shivirladi:

— Qonidan qoradori topilgan.

Zohid o'rnidan turib dahliz tomon boshladi.

— Giyohvand yigitlaringiz qayerda?

— O'zimizda.

— Yuring, ular bilan gaplashishim kerak. — *Zohid shunday deb tashqariga yo'naldi. Giyohvand yigitlardan birining pastki labi osilgan, ko'zlari chaqchaygan, ikkinchisining qarashlari sovuq, o'ng yuzida uzun tirtiq bor edi. — Bilagingni ko'rsat, — dedi Zohid tirtiqqa. U «shu ham ishmi?» deganday erinibgina kurtkasini yechib, ko'ylagining yengini shimardi. Labi osilgan yigitning bilagida ham igna izlari bor edi. Ularning giyohvandligiga Zohidda shubha qolmadi.*

— Kukunni qayerdan olardilaring? — *deb so'radi Zohid.*

— *Bratanga etganmiza, qayoqdan oganuvzani, — dedi labi osilgan yigit.*

— *Menga ham ayt.*

— *Lola ko'chasida... o'n... yettinchi uyda turadigan Sharif aka degan kishi.*

— *Ikkoving birga borganmisan?*

— *Bir xil paytda man borardim, bir xil paytda u borardi, bir xil paytda ikkalavuz borardik.*

Zohid hali Hamdamdan olgan suratlarni cho'ntagidan chiqarib, uchtasini ajratib oldida, stol ustiga yoyib, labi osilganini chaqirdi.

— *Qara, Sharif akang qaysi biri? Yigit o'rdakka o'xshab lapanglab kelib suratlarga uzoq tikildi-da, bittasini ko'rsatdi. — Joyingga o'tir, — Zohid shunday deb suratlarning joyini almashtirdi-da, tirtiqni chaqirdi. U boshqa suratni ko'rsatdi.*

— *Oxirgi marta qachon boruvdilaring? — deb so'radi Zohid.*

— *Uch kun bo'ldi.*

— *Balki to'rt kundir?*

— *Vey bratan, man o'zim borganman. Soqqa yo'g'idi, qarzga bergan. Nishtyak odam u. O'zini laboratoriyasi bor. Ayn moment tayyorlab beradi.*

— *Laboratoriyasiga kirganmisan?*

— *Kirganman-de. Shundoq chap tomonda.*

— *Ayvondan o'tgandami?*

— *Ha-de, bilib turib so'ruvasizmi? Zohid «bu yog'iga nima deysiz?» deb Hamdamga qaradi.*

— *Ayvonning oldi rommi?*

Labi osilgan yigit o'ylanib qoldi.

— *Rom bo'lsa kerak, — dedi ikkilangan holda.*

— Yolg'on gapirma! — dedi Hamdam baqirib.

— Bratan, aldavotganim yo'q.

Hamdam unga yaqinlashib, yoqasini changallab o'rnidan turg'izdi.

— Yolg'on gapirma, xunasa, uyida bo'lmagansan. Ayvoni yo'q uning.

Labi tirtiq birdan tutqanog'i tutgan odamdek baqirib yubordi:

— Qo'yvoring! Men kechasi borganman. Ayvoniga qarabmanmi, o'zi zo'rg'a turuvdim.

— Borganmisan?!

— Ha, borganman!

— Uch kun oldinmi?

— Ha, uch kun oldin.

— Juda yaxshi! — Hamdam uni qo'yib yubordi. — Menga shu kerak edi. Yozib qo'ying, o'rtoq prokuror. Borganini tan oldi. Endi bilib qo'ylaring: uch kun oldin u uyida o'ldirilgan! Ikkala yigit avvaliga «xato eshitmadikmi?» degandek qarab oldi. So'ng xuddi kelishib olishganday Hamdamga baravariga dahshat bilan boqishdi.

— Yo'q! — dedi tirtiq jon holatda.

— Nima yo'q? — dedi Hamdam g'olib kishining muloyim ovozi.

— Bormaganmiz.

— O'rtoq prokuror, bunisiga nima deysiz?

— Soqchini chaqiring, olib ketsin. (T.Malik, Shaytanat)

Misolda keltirilgan savollar so'roq qilinuvchi shaxsning ko'rsatmalari qanchalik haqiqat ekanini tekshirish uchun berilgan. Soha mutaxassisi savollardan kalit sifatida foydalanib, undan haqiqatni oydinlashtirishga, ya'ni giyohvand yigitning bu manzilga (Sharifning uyiga) bordim deb aldamoqchi, tuhmat qilmoqchi bo'layotganini aniqlagan. Tergovchi nutqidagi *Laboratoriyasiga kirganmisan? Ayvondan o'tgandami? Ayvonning oldi rommi?* kabi so'roqlar aslida qarmoqqa tushiruvchi savollar bo'lib, so'zlovchining rost yoki yolg'on guvohlik berayotganini aniqlab berishga xizmat qiladi.

Xulosa

So'roq gaplar til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy birliklar sifatida o'rganiladi. Ular nafaqat axborot olish, balki ijtimoiy munosabatlarni, his-tuyg'ularni ifodalash, muloqotni tashkil etish va milliy tafakkurni namoyon etishda katta rol o'ynaydi. So'roq gaplar yordamida xalqning madaniy qadriyatlari, urf-odatlar va an'analari, shuningdek, til va madaniyatdagi o'ziga xosliklar ko'rsatiladi.

Har bir xalqning so'roq berish uslubi, bu jarayondagi maqsadlar va yondashuvlar tilshunoslikda alohida tahlil qilinadi.

So'roq gaplarning kommunikativ vazifalari ijtimoiy hayotda va muloqot jarayonida qanday ahamiyatga ega bo'lishi, til va madaniyatning o'ziga xosligini o'rganishda yordam beradi. Ushbu tahlil so'roq gaplarning milliy mentalitet va til madaniyatini ifodalashdagi o'rnini yanada chuqurroq tushunishga imkon yaratadi.

REFERENCES

1. "O'zbek tili sintaksisi" - S.A. Azizxonov
2. "O'zbek tilshunosligining asoslari" - A. Karimov
3. "Tilshunoslikka kirish" - Sh. Sodiqova
4. "O'zbek tili" - M.S. Yuldashev